



JAHON MOLIYAVIY XIZMATLAR BOZORIDA TAKOFULNING RIVOJLANISHI VA JORIY HOLATI

Dadabayev Umidjon Abdusamat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

email: u.dadabayev@tsue.uz

Bobojonova Laylo Anvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

email: l.bobojonova@mail.ru

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 7

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a12

KEYWORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada global islom moliya bozoridagi tendensiya, aynisa takoful sanoatining hozirgi ahvoli tahlil etilgan. Shuningdek ushbu sohadagi hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar tavsiflangan. Xulosa va takliflar berilgan.

Takoful, umumiy takoful, oilaviy takoful, mudoraba, global takoful sug'urta bozori.

Kirish (Introduction/Введение)

2020 yilning 29 dekabr kuni davlatimiz rahbari o'zining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida, "O'zbekistonda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", – deya e'tirof etdi [1,2].

Bugungi kunda, takoful ko'pchilik musulmon mamlakatlarida sug'urtaning asosiy shakli hisoblanadi. Aksariyat qismi musulmonlardan iborat bo'lgan mamlakatlarda takaful sug'urtasiga talabning o'sishi takaful sug'urtasining kengayishi uchun muhim omil bo'lmoqda. Aksariyat musulmonlar yashaydigan bir qancha davlatlarda o'rta sinf qatlami daromadlari o'sib bormoqda va kuchli iqtisodiy o'sish kuzatilmoqda.

Odamlarning moliyaviy ahvoli yaxshilanar ekan, ular o'z mol-mulki va farovonligini himoya qilish uchun sug'urtadan foydalanishga ko'proq qiziqmoqdalar va bunday sharoitda fuqarolarga "Takoful" shariatga muvofiq tanlovni taklif qiladi. Bundan tashqari, investitsiya foydasining ikkala ishtirokchi o'rtasida taqsimlanishi takaful sug'urta bozorini boshqarmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Dunyoda islom moliyasini keng tadqiq qilgan olimlardan, amerikalik iqtisodchi, akademik kordinator doktor S. Sai'd o'zining "Islom bank ishi va moliyasi: asoslari va zamonaviy muammolari" (Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues) nomli kitobida islom sug'urta korxonalari faoliyatini keng yoritib bergan [3,4]. Shuningdek u takofulga quyigacha ta'rif beradi: "Takoful zamonaviy sug'urta shartnomasi uchun muqobildir. Bir guruh shaxslar, ma'lum bir xavfni har biridan belgilangan summani yig'ish orqali bo'lishishga rozi bo'lishadi (masalan, yong'in natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan zarar va hokazo). Guruh a'zolaridan birortasi mazkur xavf ostida qolgan taqdirda, zarar yig'ilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi."

Islom mamlakatlarida yashab ijod qiluvchi olimlardan Doktor Yahyo Abdur-Rahmon va boshqalar islom moliyasi va takoful bo'yicha keng tanilgan olimlardan bo'lib, moliyaviy munosabatlarda shariatga rioya qilish va moliyaviy shartnomalar bo'yicha tadqiqotlari bilan tanilgan [5,6]. Shuningdek Zohin Ansoriy 2000 va 2019 yillar oralig'ida nashr etilgan so'nggi yigirma yillik takaful adabiyotlarini sintez qiladi va uslubiy jihatdan adabiyotlarni ko'rib chiqadi, kelajakdagi tadqiqotlar

uchun ba'zi muhim yo'nalishlarni taklif qiladi [7]. Ushbu tadqiqot uchun Scopus ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinganda 96 ta maqola topildi. Maqolalar asosiy mavzular bo'yicha tasniflanganda iste'molchilarning xatti-harakatlari, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar, takaful modellari, inson resurslari va boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlanmalar yuzaga chiqadi.

Shariat sug'urtasi nafaqat aholisi ko'pchilik musulmonlar bo'lgan mamlakatlarda talabga ega balki Yevropaning bir qancha mamlakatlarida katta talabga ega bo'la boshladi [8]. Bu hodisa takaful sanoatining rivojlanishi va kelajakdagi yo'nalishi haqida global tasavvurga ega bo'lish uchun takaful bibliometrik tadqiqotlarning muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Global islom moliya sanoati 2020 yilda barqaror rivojlanib borayotganligini isbotladi. Pandemiyaning birinchi yili, uning jami aktivlari hajmi ortib, yillik 14 foizni tashkil etdi, lekin 2021 yilda bu ko'rsatkich yanada ortib 17 foizga yetdi. Shu trendda pandemiya oldingi darajadan yuqori xarakterlandi hamda aktivlari qiymati 4 trillion AQSH dollariga yetdi.



1-rasm. 2021 yilda dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati yuqori bo'lgan mamlakatlar (Milliard AQSH dollarida) ¹

Yuqoridagi rasmda dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati yuqori bo'lgan mamlakatlar (Milliard AQSH dollarida) tasvirlangan bo'lib, dunyoning bir qancha mamlakatlari islomiy aktivlarning yuqori

qiymatlariga ega ekanligi bilan tanilgan, bu ularning global islom moliya sanoatiga qo'shgan salmoqli hissasini aks ettiradi. Bu mamlakatlar islom bank ishi, moliyasi va investitsiya faoliyatini targ'ib qilishda o'zlarini asosiy ishtirokchilar sifatida ko'rsatdilar.

Malayziya islomiy moliya sanoatida yetakchi mamlakatlardan biri bo'lib, yaxshi o'rnatilgan me'yoriy-huquqiy bazaga va turli xil islomiy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga ega. Poytaxt Kuala-Lumpur yirik islomiy banklar, moliya institutlari va tartibga soluvchi organlarga mezbonlik qiluvchi islom moliyasining global markazi bo'lib xizmat qiladi.

Islomning tug'ilgan joyi sifatida Saudiya Arabistoni islomiy moliya sohasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatda bir qancha islomiy banklar va moliya institutlari joylashgan va uning poytaxti Ar-Riyod Yaqin Sharq mintaqasidagi islomiy moliya faoliyatining mashhur markazi hisoblanadi.


BAA, xususan, Dubay va Abu-Dabi dinamik islomiy moliya sanoati bilan mashhur. Mamlakat murakkab me'yoriy-huquqiy baza, zamonaviy infratuzilma hamda mahalliy va xalqaro bozorlarga xizmat ko'rsatadigan turli xil islomiy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga ega.

Qatar global islomiy moliya maydonida muhim o'yinchi sifatida paydo bo'ldi, Doha mintaqadagi asosiy moliyaviy markaz bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakat mustahkam islom banki sektoriga ega va tartibga soluvchi qo'llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish orqali islomiy moliyalashtirish tashabbuslarini faol ilgari surmoqda.

Dunyodagi eng ko'p musulmon aholisi bo'lgan Indoneziya islomiy moliya sanoati rivojlangan. Poytaxt Jakartada ko'plab islomiy banklar va moliya institutlari joylashgan bo'lib, iste'molchilar va bizneslarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun shariatga mos mahsulotlar va xizmatlarning keng spektrini taklif etadi [9,10].

Turkiya so'nggi yillarda hukumatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati va shariatga mos moliyaviy yechimlarga bo'lgan talabning ortishi bilan islomiy moliya sektorida tez o'sishga guvoh bo'ldi. Mamlakatning eng yirik shahri Istanbul mintaqadagi islomiy moliya faoliyatining asosiy markazi hisoblanadi.

Pokistonda yaxshi tashkil etilgan islomiy bank sektori mavjud, Karachi islomiy moliya faoliyati uchun asosiy markaz hisoblanadi. Mamlakatda islomiy bank operatsiyalarini tartibga soluvchi keng qamrovli me'yoriy-huquqiy baza mavjud bo'lib, iste'molchilar va korxonalar uchun shariatga muvofiq keng turdagi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi.




2-rasm. 2015-2021 yillarda (2026 yil prognozi) dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (milliard AQSH dollarida)²

Global takoful sug'urta bozori dunyoning bir qator nufuzli moliya tashkilotlari tarafidan 2022 yilda 31,7 milliard AQSH dollari hisobida baholangan va 2032 yilga kelib 126,8 milliard AQSH dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, buning uchun takofulning 2023-2032 yillarda yillik 15,2 foizlik o'sish sur'ati (SAGR – Compound annual growth rate)ga erishishi kutilmoqda.

Biroq, mintaqaviy tafovutlar tufayli takaful sug'urtasi bo'yicha standartlashtirishning yo'qligi takaful sug'urta bozoriga to'sqinlik qilmoqda. Takaful operatsiyalari va mahsulotlari tartibga soluvchi tuzilmalar, shariat kengashlari va amaliyotlardagi farqlar tufayli bir mamlakat yoki mintaqadan boshqasiga farq qilishi mumkin. Bir xillikning yo'qligi takaful operatorlarining xalqaro miqyosda ishlashini qiyinlashtiradi va yagona global Takaful bozorining o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, iste'molchilarning takoful haqida bilimlarining va undan xabardorligining pastligi takaful sug'urta bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardir. Takofulga oid munosabatlarda




3-rasm. 2021 yilda dunyo bo'ylab islom moliyasi aktivlari qiymati (chapda, milliard AQSH dollarida. O'ngda foizda)³

musulmonlar ko'p bo'lgan davlatlarda sezilarli o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, butun dunyo bo'ylab hali ham ko'p sonli aholi, jumladan, musulmon bo'lmagan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi musulmonlar ham mazkur xizmat bilan yetarlicha moliyalashtirilgan yoki Takoful mahsulotlari bilan qamrab olinmagan. Bu o'rganilmagan bozor musulmonlar soni ko'p bo'lgan hududlarni, jumladan, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Yevropa va Shimoliy Amerikaning shariatga mos moliyaviy mahsulotlar haqida xabardorligi va talabi ortib borayotgan hududlarni qamrab oladi. Shunday qilib, takaful sug'urta bozori prognozi o'sishi uchun katta daromadli imkoniyatlarni taqdim etishi kutilmoqda.

COVID-19 pandemiyasi takaful sug'urta bozoriga o'rtacha ta'sir ko'rsatdi. Odamlar va kompaniyalar sog'liq va iqtisodiy muammolardan moliyaviy xavfsizlikni qidirar ekan, pandemiya bir tomondan sug'urta, shu jumladan takafulning qiymati haqida xabardorlikni oshirdi. Bu insonlarda ba'zi takaful tovarlariga, xususan, sog'liq va hayot sug'urtasiga qiziqishni oshirdi [11,12].

Hozirda takoful sug'urta sektorida o'sishga erishish va global oqimga



4-rasm. Sug'urta munosabatlarning 10 ta muammosi.

qo'shilish ahamiyat kasb etmoqda. Bu, ayniqsa, takaful sanoati duch kelayotgan muammolar global miqyosda yechilishi zaruratini keltirib chiqaradi. Shuning uchun islom moliya sektori, ayniqsa islom korxonalari qisqa va uzoq muddatli strategiyalar bilan harakat qilmoqda.

Biz bugungi kunda takoful korxonalari duch kelayotgan 10 ta muammoni 5 guruhga ajratdik. Ulardan dastlabki faoliyatni boshqaruv va tartibga solish sohasi bo'lib, bu Takofulda izchil tartibga soluvchi chegaralarning har xilligi va kapitalning adekvatligi muammosi hisoblanadi. Ya'ni takoful munosabatlarida qat'iy xududlar belgilab olinishi lozim bo'lib, shari'y qonuniyatlarga jiddiy amal qilish kerakligini anglatadi.

Ikkinchi guruh muammolariga risk bilan bog'liq masalalarni kiritish mumkin, ya'ni takoful biznesi yuqori riskli faoliyat bo'lib uni qayt'iy monitoring va nazorat qilib turish kerak bo'ladi. Aksincha islom moliyasida penya va jarimalar kamligi bois ba'zan jarayon ishtirokchilari o'z majburiyatlariga bepisandlik bilan qaraydilar. Va natijada zarar yuzaga kelib qolishi mumkin. Shuning uchun bunday munosabatlar doim qat'iy monitoring ostida bo'lishi kerak bo'ladi. Takafulning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash mazkur soha manfaatdorlari, shuningdek barcha ishtirokchilar uchun zaruriydir. Moddiy-huquqiy normalar tuzuvchilar, milliy tartibga soluvchilar, shuningdek mazkur soha standartlarini yaratuvchi organlar takoful amaliyotlari va polislar ishlab

chiqish jarayonlarida birgalikda harakat qilishlari hamda turli rivojlantiruvchi tashabbuslarni amalga oshirishlari lozim. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni oladi o'z ichiga:

1. Sohaga doir cheklovlar va ularni bartaraf etishda yangi me'yorlar ishlab chiqish.

2. Kapital adekvatligi optimallashtirish.

Uchinchi guruhni tasniflayotganda, takoful kirib borayotgan bozorlar va bu bozorlarda aniqlangan yangi biznes modellar, shuningdek ular duch kelayotgan muammolar keltiriladi. Ya'ni takomillashgan texnologiyalar orqali biznesda samaradorlikka erishish maqsad qilib olinadi.

To'rtinchi guruh takoful mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, mazkur mahsulotlarni ishlab chiqish texnologiyalari va mahsulotlarni maqsadli bozorlarga yo'naltirish kabi muammolarni o'rganadi [13].

Va nihoyat beshinchi guruhda takoful korxonalari o'z-o'zini rivojlantirish uchun malaka oshirishlar, treninglar va shunga o'xshash o'quv dasturlari ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'lishi keltiriladi [14].

Xulosa (Conclusions/Заключения).

Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, Takaful, ya'ni islom sug'urtasi global sug'urta landshaftining o'ziga xos va tez rivojlanayotgan komponenti hisoblanadi. Shariat tamoyillariga asoslangan Takaful o'zaro hamkorlik va yordam tushunchasini o'zida mujassam etgan bo'lib, jismoniy shaxslar va korxonalar uchun axloqiy va shariatga mos sug'urta yechimlarini taklif

etadi. Takoful tavakkalchilik va foydani taqsimlash kabi o'ziga xos xususiyatlari orqali, nafaqat, islom mamlakatlarida, balki butun dunyoda moliyaviy inklyuzivlik va barqarorlikka hissa qo'shadi.

Takafulning o'sishi va kengayishi uning dunyo bo'ylab turli bozorlarda qabul qilinishi va dolzarbligini bildiradi. Iqtisodiyotlar rivojlanib, axloqiy moliyaviy mahsulotlarga talab ortib borar ekan, Takaful global miqyosda jamiyatlarning sug'urta ehtiyojlarini qondirishda yanada muhim rol o'ynashga tayyor.

Biroq, Takafulning to'liq salohiyatini ochish uchun standartlashtirish, mazkur bilimdan xabardorlik va tartibga solishni uyg'unlashtirish kabi muammolarni hal qilish kerak bo'ladi. Manfaatdor tomonlar, jumladan hukumatlar, tartibga soluvchi organlar, islom ulamolari va takoful sanoati ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar ushbu to'siqlarni bartaraf etish va Takaful sanoatida barqaror o'sishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Mohiyatan, Takoful nafaqat an'anaviy sug'urtaga munosib muqobil, balki moliya sohasidagi axloqiy qadriyatlar va tamoyillarning namoyonidir. Takaful sanoati rivojlanishda va innovatsiyalarda davom etar ekan, u moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish, iqtisodiy barqarorlikni oshirish va butun dunyo bo'ylab jamiyatlar farovonligiga hissa qo'shadi.

References:

1. U.Dadabayev. (2023) Insurance relationships in Islamic finance: development prospects of family takoful UO'K 336 И: 36 (575.1). Islom moliyasida sug'urta munosabatlari: oilaviy takofulning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil elektron jurnali. UO'K 336 И: 36 (575.1). 2023-yil, noyabr www.e-itt.uz
2. Bakhridinovich, M. S. (2022). The Ways of Implementing Factoring Practice in Financing the Logistics System. American Journal of Economics and Business Management, 5(6), 221-229.
3. Salman Syed Ali and Ausaf Ahmad. Islamic Banking and Finance: Fundamentals and Contemporary Issues. King Fahad National Library Cataloging-in-Publication Data. Islamic Research & Training Institute. P.O. Box 9201, Jeddah 21413, First Published 1427H (2007). Saudi Arabia. ISBN 9960-32-162-2. 312 p.
4. Shoh-Jakhon, K., Saidmakhmudovich, U. A., Ogiloy, A., Isaev, F., Kholbaev, N., Samariddin, M., & Kholbaeva, S. (2022, December). Econometric modeling of central bank refinancing rate in Uzbekistan. In The 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS'22).
5. Yahia Abdul-Rahman. The Art of RF (Riba-Free) Islamic Banking and Finance Tools and Techniques for Community-Based Banking, 2nd Edition. John Wiley & Sons Ltd. 2014. ISBN 9781118770962. 544 p.
6. Maxmudov, S. (2023). LOGISTIK TA'MINOT ZANJIRINI MOLIALSHTIRISHDA FAKTORING VA RIVERSIV FAKTORING AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 31–34. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/66>
7. Ansari, Z. (2022). A Review of 20 years of Takaful Literature Using a Systematic Method. Asian Journal of Economics and Banking (2022), 2-25.
8. Al-Amri K., Hossain M. Z. (2017). A survey of the islamic insurance literature-Takaful. International Journal of Economic Research, 14(9), 173–185.
9. Qo'ldoshev, Q. (2023). SUG'URTA BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Страховой рынок Узбекистана, 1(1), 25–28. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/13>
10. Yadgarov Akram Akbarovich. (2023). BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA SUG'URTA FAOLIYATIGA ILMIY YONDASHUVLAR. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 5–7. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/56>
11. Maxmudov, S. (2023). LOGISTIKA KORXONALARIDA AYLANMA AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI MOLIAVIY EKSPLOATSION EHTIYOJLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(4), 123–130. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a18
12. Қўлдошев, Қ. (2023). ЎЗБЕКИСТОН СУГУРТА БОЗОРИ: РИВОЖЛАНИШ ЙўНАЛИШЛАРИ ВА МУАММОЛАР. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 1–4. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/55>
13. ICD – Refinitiv Islamic Finance development report 2022: Embracing change
14. Abdusamat ugli Dadabaev, U., Faxriddinovich Uktamov, K., Abdurakhimovich Isadjanov, A., Rustamovich Sodikov, Z., & Sherkulovna Batirova, N. (2021, December). Ways to Improve Integration of Uzbekistan in Global Financial Services with the Participation of Takaful Companies in the Conditions of Development of the Digital Economy. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 440-446).
15. U.Dadabaev. (2024). Takaful: Principles, Practices, and Global Growth. Journal of Sustainable Development and Green Technology (JSDGT) Vol. 04, No. 02, PP. 18-21, 2024..